

**“O‘zsanoatqurilishbank” ATB “Odob-axloq” komissiyasining yig‘ilish
Bayoni № 9**

2025-yil 23-sentabr

Toshkent shahar

Komissiya raisi:	Boshqaruv Raisi maslahatchisi A.Islamov
Komissiya raisi o‘rinbosari:	Ichki xavfsizlik departamenti direktori S.Sergiyenko
Komissiya a‘zolari:	Xodimlar va tashkiliy rivojlantirish departamenti direktori v.v.b. M.Gafurova Yuridik departamenti direktori v.v.b. U.Aminova Komplayens-nazorati departamenti direktori A.Yoqubjonov Risk-menejment departamenti direktori o‘rinbosari D.Xujayev Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati rahbari Sh.Ismoilov
Komissiya kotibi:	Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati menejeri Sh.Navruzov

KUN TARTIBI:

- 1. “O‘zsanoatqurilishbank” ATBda xodimlarning tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanayotganligi aniqlangan holatlar yuzasidan.**
- 2. “O‘zsanoatqurilishbank” ATB xodimlari xizmat (mehnat) faoliyatida manfaatlar to‘qnashuvi holatlarini o‘rganish yuzasidan o‘tkazilgan tahlil natijalarini ko‘rib chiqish.**

Komissiya Raisi o‘rinbosari Ichki xavfsizlik departamenti direktori S.Sergiyenko tomonidan yig‘ilish ochiq deb e‘lon qilindi hamda kun tartibidagi birinchi masala bo‘yicha axborot berish uchun Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati rahbari Sh.Ismoilovga so‘z berildi.

Sh.Ismoilov kun tartibidagi birinchi masala bo‘yicha Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati tomonidan “O‘zsanoatqurilishbank” ATBda faoliyat olib borayotgan xodimlarning tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanib kelayotganligi aniqlanganligini, Jumladan: “Green banking” departamenti Yashil loyihalar xizmati menejeri Abdurasulova Sitorabonu Raxmatullayevna “Ilm Nashr” MChJning 98,70 foiz ta’sischisi, “Loyiha boshqaruvi” departamenti Loyihalar portfelini boshqarish xizmati ish yurituvchisi Abduvaliyev Bexruz Chingizxon O‘g‘li “Oq Uy Construct” MChJning 33 foiz ta’sischisi, “Rakat” bank xizmatlari markazi Kassa amaliyotlarini muvofiqlashtirish guruhi universal kassiri Muxiddinova Asal Shuhrat Qizi “Farangiz-Shirin” MChJning rahbari va 100 foiz ta’sischisi hamda “Qarshi” bank

xizmatlari markazi Kassa amaliyotlarini muvofiqlashtirish guruhi universal kassiri Payanov Rustam Musulmanovich "Asilbek Shoxsita Hamkor" OKning 50 foiz ta'sischisi hisoblanishini yuzasidan ma'lumot berdi.

Shuningdek, mazkur xodimlar tomonidan taqdim etilgan yillik deklaratsiyalarida tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi ochiqlanmaganligi aytib o'tildi.

Shundan so'ng, kun tartibidagi ikkinchi masala yuzasidan Sh.Ismoilovga komissiya a'zolariga:

- "O'zsanoatqurilishbank" ATBda manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risida"gi Nizom (ro'yxat raqami: 632, 29.01.2025-y.) talablariga binoan bank xodimlari tomonidan taqdim etilgan 4 030 ta yillik deklaratsiyalarda ochiqlangan ma'lumotlar haqiqiyliги tahlil qilinganida;

- 82 ta holatda (1-ilova), shundan 87 nafari Bosh bank va 77 nafari BXO va BXM xodimlari o'rtasida "Ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi" holatlari aniqlanganligi;

- 122 nafar (2-ilova), shundan 80 nafari Bosh bank va 42 nafari BXO va BXM xodimlari tomonidan manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiyalarida yaqin qarindoshlari to'g'risidagi ma'lumotlarni ochiqlamaganligini;

- 1 ta holatda (3-ilova), Bekobod BXMda "Mavjud manfaatlar to'qnashuvi" holati aniqlanganligini ma'lum qildi.

Xususan, Bekobod BXMda aniqlangan 1 ta "Mavjud manfaatlar to'qnashuvi" (yaqin qarindoshidan biri ikkinchisining bevosita bo'ysinuvida faoliyat ko'rsatib kelayotgan) xodim (Sh.Abdusattarova) mehnat qonunchiligi talablariga binoan belgilangan tartibda bola parvarishlash ta'tiliga chiqqanligi va hozirgi kunda bevosita bank amaliyotlarini bajarmayotganligi sababli, u bola parvarishlash ta'tilidan qaytganidan so'ng yuzaga kelishi mumkin bo'lgan manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etish masalasi o'rnatilgan tartibda ko'rib chiqilishi maqsadga muvofiqligi ta'kidlab o'tdi.

Bosh bank xodimlarida aniqlangan 83 ta holatdagi "Ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi" bo'yicha xodimlarning bevosita rahbarlari tomonidan doimiy ravishda nazorat va monitoring qilib borish, profilaktik tushuntirishlar hamda o'quv-trening mashg'ulotlari o'tkazish lozimligi ta'kidlab o'tdi.

Komissiya a'zolari taqdim etilgan ma'lumot hamda bildirilgan takliflarni muhokama qilib,

QAROR QILADI:

1. Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati rahbari Sh.Ismoilovning kun tartibi bo'yicha bergan axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. "O'zsanoatqurilishbank" ATBda faoliyat olib borayotgan hamda bir vaqtni o'zida tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanib kelayotgan 4 nafar xodimlarning 2 nafari kasallik varaqasida, 1 nafari mehnat ta'tilida hamda 1 nafari ish o'zni qisqartirishga tushganligini inobatga olib, mazkur xodimlar ishga qaytguniga qadar tadbirkorlik faoliyatini yakunlash bo'yicha ogohlantirilsin.

3. Xodimlar tomonidan taqdim etilgan yillik deklaratsiyalarda tadbirkorlik faoliyati shug'ullanishlari to'g'risidagi ma'lumotlarni ochiqlamaganligi uchun qat'iy ogohlantirilsin.

4. Bekobod BXMda aniqlangan 1 ta holatdagi “Mavjud manfaatlar to‘qnashuvi” (yaqin qarindoshdan biri ikkinchisining bevosita bo‘ysinuvida faoliyat ko‘rsatib kelayotgan) xodim (Sh.Abdusattarova) mehnat qonunchiligi talablariga binoan hozirda bola parvarishlash ta‘tilida bo‘lganligi sababli ushbu xodim bola parvarishlash ta‘tilidan qaytganidan so‘ng, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish masalasi o‘rnatilgan tartibda ko‘rib chiqilishini inobatga olib, ushbu holat Xodimlar va tashkiliy rivojlantirish departamenti tomonidan nazoratga olinsin.

5. Bosh bank va hududiy tarmoq (BXO va BXM)lar xodimlarida aniqlangan jami 82 ta “Ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi” holatlarini xodimlarning bevosita rahbarlari tomonidan doimiy ravishda nazorat va monitoring qilib borish, profilaktik tushuntirishlar o‘tkazish (natijasi bo‘yicha bayonnoma rasmiylashtirish) orqali ushbu holatlar “Mavjud manfaatlar to‘qnashuvi”ga aylanmaslik choralarini ko‘rish yo‘li bilan manfaatlar to‘qnashuvi oldi olinsin.

6. Xodimlar va tashkiliy rivojlantirish departamenti tomonidan Bosh bank va hududiy tarmoq (BXO va BXM)lar xodimlarida aniqlangan 82 ta “Ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi” holatlari bo‘yicha har bir xodim bilan o‘tkazilgan profilaktik tushuntirishlar yuzasidan rasmiylashtirilgan bayonnomalarni Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmatiga joriy yilning 15 oktabr sanasiga qadar taqdim etilishi ta‘minlansin.


7. Bankning barcha tarkibiy bo‘linmalari va hududiy tarmoqlari rahbarlari tomonidan manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymagan holda mehnat faoliyatini yuritish, bunda rahbar sifatida shaxsiy namuna ko‘rsatish hamda qo‘l ostidagi xodimlarning ushbu yo‘nalishdagi qonunchilik va ichki qoidalar talablariga qat’iy rioya qilishlari ustidan doimiy nazorat o‘rnatilsin.

Komissiya raisi:

Komissiya raisi o‘rinbosari:

Komissiya a‘zolari:

Komissiya kotibi:



A.Islamov
S.Sergiyenko
M.Gafurova
U.Aminova
A.Yoqubjonov
D.Xujayev
Sh.Ismoilov
Sh.Navruzov